




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOTLAR



2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va
dehqon xo'jaliklarisiz)

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya
vazirligi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar
bazasi asosida shakllantirildi



KORXONA VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI


So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag'batlantirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-oktabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari 28 534 tani tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 23 267 ta.

Shuningdek, ushbu davrga 52 898 ta korxona ro'yxatdan o'tib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,5 foizni tashkil etdi.

Korxona va tashkilotlar soni to'g'risida umumiylumotlar

(1-oktabr holatiga)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024-yil yanvar-sentabr holatiga)


2024-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 504 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan sezilarli o'sishi kuzatilmoxda. Jumladan: Qo'rg'ontepaga (74 taga), Ulug'nor (70 taga) va Bo'ston tumanida (52 taga) o'sish mavjud. Tarmoqlar kesimida esa eng yuqori ko'rsatkichni sanoat sohasida – 116 taga, yashashva ovqatlanish bo'yicha xizmatlari sohasida – 110 taga hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 11 taga ko'paygani bilan izohlash mumkin.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 28 534 tani tashkil etdi, ulardan 23 401 tasi tadbirkorlik subyektlari.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 30,3 foiz, sanoat – 18,3 foiz, qurilish – 6,6 foiz, qishloq, o'rmonva baliqchilik xo'jaligi – 5,4 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Andijon shahrida – 26,0 foiz, tumanlardan Asaka – 8,4 foiz, Andijon – 8,0 foiz, Shahrixon – 6,8 foiz va Baliqchida – 6,0 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni

(birlikda)




Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Andijon sh.	7 433
Asaka t.	2 409
Andijon t.	2 272
Shahrixon t.	1 931
Baliqchi t.	1 700
Oltinko'l t.	1 500
Qo'rg'ontep a t.	1 460
Izboskan t.	1 405
Marhamat t.	1 347
Jalaquduq t.	1 329
Paxtaobod t.	1 248
Xo'jaobod t.	1 234
Bo'ston t.	1 045
Buloqboshi t.	889
Ulug'nor t.	835
Xonobod sh.	497

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoqda. 2024-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 377 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 375 ta;
- yirik korxonalar 2 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni (birlikda)

3 377 → 2024

2023 ← 3 275

4 421 → 2022


2021 ← 4 848

6 367 → 2020

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	691
Andijon t.	276
Qo‘rg‘ontepa t.	256
Baliqchi t.	228
Asaka t.	217
Shahrixon t.	194
Bo‘ston t.	188
Oltinko‘l t.	179
Xo‘jaobod t.	171
Ulug‘nor t.	168
Izboskan t.	165
Jalaquduq t.	153
Buloqboshi t.	149
Marhamat t.	145
Paxtaobod t.	135
Xonobod sh.	62

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 23 401 tani tashkil etdi, ulardan 23 267 tasi kichik korxona va mikrofirmalar.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 36,9 foiz, sanoat – 22,2 foiz, qurilish – 7,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,8 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 4,0 foiz, tashish va saqlash – 3,7 foiz, axborot va aloqa – 1,8 foiz, boshqa turlari – 11,3 foiz.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




(2024- yil yanvar-sentabr holatiga)

Mamlakat iqtisodiyoti “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili-kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-sentabr oylarida sanoat sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 674 tadan 789 taga (o‘sish 115 taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida – 128 tadan 238 taga (o‘sish 110 taga) ko‘paydi.

Yillar kesimida soni*(birlikda)***Hududlar kesimida soni***(birlikda)*

Andijon sh.	689
Andijon t.	276
Qo‘rg‘ontepa t.	256
Baliqchi t.	228
Asaka t.	217
Shahrixon t.	194
Bo‘ston t.	188
Oltinko‘l t.	179
Xo‘jaobod t.	171
Ulug‘nor t.	168
Izboskan t.	165
Jalaquduq t.	153
Buloqboshi t.	149
Marhamat t.	145
Paxtaobod t.	135
Xonobod sh.	62


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni*(birlikda)*

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari to'g'risida ma'lumotlar


(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Hududlar kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Andijon shahrida (26,9 foiz), Asaka (8,5 foiz), Andijon (8,3 foiz), Shahrixon (6,6 foiz) va Baliqchi (6,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda. Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Yillar kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)




2- BO'LIM. KORXONA VA TASHKILOTLARNING IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI BO'YICHA MA'LUMOTLAR

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar (2024-yil 1-oktabr holatiga)

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Asaka (12,0 foiz), Qo'rg'ontepa (8,9 foiz) va Baliqchi (8,8 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.



Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-oktabr holatiga)


Sanoat – iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 18,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,6 foizini ishlab chiqarish sanoati, 1,9 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash, 1,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish va 0,7 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash tashkil etgan.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	1 385
Andijon t.	582
Asaka t.	420
Shahrixon t.	377
Xo'jaobod t.	313
Baliqchi t.	265
Oltinko'l t.	251
Qo'rg'ontep a t.	240
Jalaquduq t.	232
Izboskan t.	214
Marhamat t.	201
Buloqboshi t.	188
Paxtaobod t.	177
Bo'ston t.	163
Ulug'nor t.	105
Xonobod sh.	101

Yillar kesimida soni (birlikda)



4 983 | Ishlab chiqarish sanoati



100 | Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash



93 | Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



38 | Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 53,5 foiz ulushni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishidagi korxonalar soni esa 31,1 foiz ulushni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishidagi korxonalar soni 15,4 foiz ulushni tashkil etdi.



Hududlar kesimida soni

(birlikda)

Andijon sh.	625
Asaka t.	185
Andijon t.	140
Shahrixon t.	133
Oltinko'l t.	103
Bo'ston t.	102
Izboskan t.	81
Marhamat t.	79
Baliqchi t.	74
Xo'jaobod t.	63
Paxtaobod t.	62
Qo'rg'ontepa t.	55
Buloqboshi t.	52
Ulug'nor t.	47
Jalaquduq t.	43
Xonobod sh.	29

Yillar kesimida soni

(birlikda)



Bino va
inshootlar qurish

1 003



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

582



Fuqarolik
obyektlarini qurish

288

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 8 621 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.


Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,0 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,9 foiz ulushni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,1 foiz ulushni tashkil etdi

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Andijon sh.	1 983
Asaka t.	692
Andijon t.	689
Baliqchi t.	628
Shahrixon t.	585
Oltinko'l t.	497
Izboskan t.	488
Jalaquduq t.	469
Qo'rg'ontepqa t.	448
Paxtaobod t.	418
Xo'jaobod t.	381
Marhamat t.	374
Bo'ston t.	314
Ulug'nor t.	293
Buloqboshishi t.	231
Xonobod sh.	153

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

5 443

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

2 584

616

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga 1 352 taga yetib, ularning 1 349 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 5,7 foiz ulushini tashkil etdi;

restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	476
Andijon t.	123
Asaka t.	93
Shahrixon t.	77
Qo'rg'ontep a t.	66
Baliqchi t.	64
Oltinko'l t.	59
Jalaquduq t.	57
Marhamat t.	54
Izboskan t.	51
Ulug'nor t.	51
Paxtaobod t.	46
Xonobod sh.	40
Xo'jaobod t.	35
Buloqboshi t.	31
Bo'ston t.	29

Yillar kesimida soni (birlikda)



(2024-yil 1-oktabr holatiga)

2024-yil 1-oktabr holatiga kompyuter dasturlash va aloqa bo'limida korxona va tashkilotlar soni, axborot va kommunikatsiyalar sohasida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar umumiyligi sonining 75,6 foizini;

Axborot xizmatlari va noshirlik faoliyatini rivojlantirish bo'limida faoliyat yurituvchi korxonalar soni 20,5 foizini;

Ko'rsatuvalar va teleradioeshittirishlar yaratish hamda kino, videofilmlar, teledasturlar, fonogrammalar va yozuvlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni esa 3,9 foizni tashkil etdi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**

Andijon sh.	143
Baliqchi t.	41
Marhamat t.	39
Xo'jaobod t.	32
Buloqboshi t.	24
Asaka t.	22
Andijon t.	21
Paxtaobod t.	19
Ulug'nor t.	16
Shahrixon t.	16
Oltinko'l t.	15
Qo'rg'ontepapa t.	15
Izboskan t.	10
Jalaquduq t.	9
Bo'ston t.	7
Xonobod sh.	5

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Kompyuter dasturlashtirish,
maslahat berish va boshqa
yordamchi xizmatlar

126 202

Aloqa



Noshirlik faoliyati

41 48

Axborot xizmati
ko'rsatish
sohasidagi faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion
dasturlar, fonogrammalar va
musiqali yozuvlarni ishlab chiqish

12 5

Dasturlar yaratish bo'yicha
faoliyat va teleko'rsatuv
va radioeshittirish



(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 941 ta yoki 92,0 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

ushbu sohadagi korxonalar sonining 96,8 foizi sog'liqni saqlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,0 foizni tashkil etdi;

yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 1,2 foizini tashkil etdi.


Hududlar kesimida soni

(birlikda)


Andijon sh.	357
Asaka t.	83
Andijon t.	67
Shahrixon t.	66
Oltinko'l t.	59
Baliqchi t.	55
Izboskan t.	50
Paxtaobod t.	48
Xo'jaobod t.	47
Marhamat t.	43
Qo'rg'ontep a t.	42
Jalaquduq t.	42
Buloqboshi t.	31
Xonobod sh.	13
Bo'ston t.	11
Ulug'nor t.	9

Yillar kesimida soni


(birlikda)



Sog'liqni saqlash
sohasidagi
faoliyat



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash



(2024-yil 1-oktabr holatiga)

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**


Andijon sh.	305
Asaka t.	75
Bo'ston t.	57
Andijon t.	55
Shahrixon t.	52
Marhamat t.	48
Paxtaobod t.	45
Xo'jaobod t.	37
Oltinko'l t.	35
Izboskan t.	29
Qo'rg'ontep a t.	28
Baliqchi t.	28
Jalaquduq t.	23
Buloqboshi t.	22
Ulug'nor t.	15
Xonobod sh.	8

2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdag'i faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 69,7 foizni tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining korxonalar soni 28,7 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,4 foizni;
- havo va suv transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,2 foizni tashkil etgan.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy
shakli bo'yicha umumiylumot**

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quydagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan
tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi (foizda)**

19 628

**mas'uliyati cheklangan
jamiyat**

83,9

2 042

xususiy korxonalar

8,7

1 517

oilaviy korxonalar

6,5

35

aksiyadorlik jamiyat

0,1

179


boshqalar

0,8

(2024-yil yanvar-sentabr holatiga)

Mas'uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zları qo'shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	646
Andijon t.	231
Baliqchi t.	207
Qo'rg'ontepə t.	201
Asaka t.	192
Shahrixon t.	176
Ulug'nor t.	162
Oltinko'l t.	159

Xo'jaobod t.	156
Izboskan t.	151
Jalaquduq t.	143
Marhamat t.	140
Paxtaobod t.	131
Bo'ston t.	111
Buloqboshi t.	93
Xonobod sh.	56

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Amaldagi 23 401 ta tijorat korxona va tashkilotlaridan 2024-yil 1-oktabr holatiga mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 19 628 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirdorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,6 foiz, sanoat – 21,3 foiz, qurilish – 8,8 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 6,0 foiz.

**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)


Andijon sh.	5 551
Andijon t.	1 594
Asaka t.	1 452
Shahrixon t.	1 293
Baliqchi t.	1 168
Oltinko'l t.	999
Izboskan t.	978
Marhamat t.	976

Xo'jaobod t.	903
Jalaquduq t.	900
Paxtaobod t.	896
Qo'rg'ontepa t.	843
Ulug'nor t.	614
Bo'ston t.	570
Buloqboshi t.	546
Xonobod sh.	345


(2024-yil 1-oktabr holatiga)

2024-yil 1-oktabr holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan Andijon shahrida – 452 ta, Asaka – 310 ta va Bاليqchi tumanida – 185 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan savdo sohasida – 810 ta, sanoat – 355 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – 156 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 152 ta.

Yillar kesimida soni (birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	452
Asaka t.	310
Bалиqchi t.	185
Andijon t.	125
Shahrixon t.	122
Jalaquduq t.	115
Oltinko'l t.	115
Qo'rg'ontepsha t.	113

Marhamat t.	103
Xo'jaobod t.	97
Izboskan t.	73
Bo'ston t.	63
Paxtaobod t.	53
Buloqboshi t.	49
Ulug'nor t.	35
Xonobod sh.	32


(2024-yil 1-oktabr holatiga)

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 1 517 tani tashkil etdi.

Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: sanoat – 40,1 foiz, savdo – 27,2 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 12,3 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 8,6 foiz, hududlar kesimda esa eng ko'pi Andijon shahri – 15,7 foiz, Andijon – 14,3 foiz, Bo'ston – 14,0 foiz va Asaka tumanida – 13,4 foiz faoliyat ko'rsatmoqda.


Yillar kesimida soni

(birlikda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni

(birlikda)



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	238
Andijon t.	217
Bo'ston t.	212
Asaka t.	203
Qo'rg'ontepka t.	154
Shahrixon t.	112
Oltinko'l t.	92
Buloqboshi t.	77

Izboskan t.	62
Baliqchi t.	38
Xonobod sh.	27
Ulug'nor t.	23
Marhamat t.	20
Paxtaobod t.	18
Jalaquduq t.	14
Xo'jaobod t.	10

(2024-yil 1-oktabr holatiga)


O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda. Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismalaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Hududlar bo'yicha fermer xo'jaliklarining salmoqli qismi Qo'rg'ontepaga (11,7 foiz), Ulug'noriga (10,5 foiz) va Jalaquduqiga (10,0 foiz) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida soni (birlikda)

Qo'rg'ontep t.	932
Ulug'nor t.	837
Jalaquduq t.	800
Paxtaobod t.	734
Andijon t.	623
Asaka t.	621
Baliqchi t.	591
Marhamat t.	545
Xo'jaobod t.	526
Izboskan t.	468
Shahixon t.	394
Buloqboshi t.	323
Bo'ston t.	290
Oltinko'l t.	272
Xonobod sh.	7
Andijon sh.	1

Yillar kesimida soni (birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 329 ta korxonalardan 130 tasi qo'shma korxonalar va 199 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

**Hududlar kesimida soni
(birlikda)**



**Yillar kesimida soni
(birlikda)**



Hududlar kesimida soni (birlikda)

Andijon sh.	133
Andijon t.	22
Oltinko'l t.	18
Asaka t.	18
Izboskan t.	17
Shahrixon t.	17
Jalaquduq t.	15
Buloqboshi t.	15

Marhamat t.	13
Xonobod sh.	13
Xo'jaobod t.	11
Baliqchi t.	10
Qo'rg'ontep a t.	8
Bo'ston t.	7
Paxtaobod t.	6
Ulug'nor t.	6

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoxda.

Chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 308 tadan 329 taga (o'sish 21 taga) ko'paydi.

Yetakchi o'rinni 88 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,7 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 19,1 foiz), Turkiya (ulushi 14,9 foiz), Qirg'iz Respublikasi (ulushi 13,1 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 8,5 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

(2024-yil 1-oktabr holatiga)



Mamlakatimizda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida iqtisodiyotni liberalallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Andijon shahriga 40,4 foiz, tumanlar orasida esa Andijon – 6,7 foiz, Oltinko'l – 5,5 foiz va Asaka – 5,5 foiz to'g'ri keladi.

(2024-yil 1-oktabr holatiga)




So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

(2024-yil 1-oktabr holatiga)

qo'shma korxonalar



xorijiy korxonalar



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashdirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **2016-yil 24-avgustdagি** "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" **275-son** qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida **2024-yil 1-oktabr** holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI PREZİDENTI HUZURIDAGI
STATISTİKA AGENTLİĞİ

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

GTIR kodini kiriting

Aparatxonalerni tekshir, xayriddan bosing:
z kq qj

Rasmdagi kodni kiriting

Oshish

C) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Statistika agentligi
2025 yil



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining
www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida,
so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib,
axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.



Andijon viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74

PRESS-RELIZ

